



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6/1 2024



*гуманитарные науки
естественные науки
технические науки*

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

6/1-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы суўалық берилген.*

Нөкис

Mirzayeva L.E. Umumta'lim maktablari geografiya ta'limida mediata'lim resurslaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	118
Haytbayeva S. R. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik jihatlari.....	122
Ismoilova D. M. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi.....	125
Mamatova A.M. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati.....	128
Jabborova O. M., Matupayeva Sh. Z. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati.....	131
Mamatova A.M. Tarbiya pedagogikasi xususiyatlari.....	133
Kurbanov O.E. Magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual asoslari.....	136
Нургизарова З.Б. Мактаб раҳбарининг тарбиявий ишларни бошқаришдаги роли ..	140
Abdumalikov A.I. Mehnat tarbiyasi – ma'naviy tarbiyaning negizi.....	144
Musoyeva A.B. The perspectives of future professionals on improving their research skills through academic writing.....	148
Тожибоева Г.Р. Понятие и задачи педагогической диагностики в начальной школе	156
Jabborova O.M., Toshmurova D.D. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari.....	159

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rakhimova G.S., Rasulov M.A., Yakubov K.N. Ўзбекистон ССРда табиатни муҳофаза қилишдаги қонунларнинг аҳамияти.....	163
---	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Mashrabjonov U. Mental arifmetikaning rivojlanish bosqichlari.....	167
Xurramov O.Sh. Matritsalarini kriptografiyadagi tatbiqlari.....	172
Abduqodirova P.T., Ibaydullayev D. Interfaol usullar bilan python dasturlash tilini o'qitish.....	174
Ismoilov U. Fizika fanini o'qitishda stem yondashuvi va uning asosiy tamoyillari hamda komponentlari.....	177
Egamnazarova S.X. Kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish istiqbollari.....	180
Ismoilov E.O. Differensial tenglamalarni mathcad va maple dasturlaridan foydalanib o'qitish metodikasi.....	183
Nortojiyev A.M. Fizikani arxitektura va qurilish fanlariga integratsiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish.....	189
Jurayeva M.N., Abdiraxmonova R.E. Algebra fanini o'qitishda kontekstli topshiriqlardan foydalanish.....	194
Xakimova Yo.T. Informatika va axborot texnologiyalari darslarini 4 "K" modeli asosida o'qitish.....	197
Xurramov O. Funktsiyalar va ularning turli sohalaridagi tatbiqlari mavzusini yoritishda klaster metodidan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati.....	202



jarayonida mustaqil ishni faollashtirish - yangi ta'lim maqsadlariga erishishda uning rolini sezilarli darajada oshirish, unga muammoli xususiyat berish, sub'ektlarni umumiy va kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish vositasi sifatida qarashga undashdir.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, ularning mustaqil bilim olish faolligini oshirish ularning ijobiy o'quv motivatsiyasini rivojlantirish uchun kognitiv faoliyat mazmuni, shakllari, usullari, usullarini takomillashtirishni o'z ichiga olgan maqsadli talabning o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyati sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. Иванов Д.А., Тубельский А. Н. Разработка концептуальных оснований трансляции и освоения нетрадиционного педагогического опыта на базе экспериментальных площадок // *Вопр. методологии*. 1992. № 1–2.
2. Larisa Alexandrovna Darinskaya "Technologies of Organization of Students' Independent Work in Studying Pedagogical Disciplines at Classic Universities". *Modern Technologies for Teaching and Learning in Socio-Humanitarian Disciplines* 2019.
3. Haytbayeva S.R. Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondoshuvni joriy etishning pedagogik jihatlari // "Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondoshuvni joriyetishning pedagogik jihatlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. -Toshkent, 2013 y. -B. 123-125.
4. Saparov K.A., Haytbayeva S.R. Biologiya ta'limiga kompetensiyaviy yondoshuvni joriy etish va ta'lim jarayonini optimallashtirishda elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi mavzusidagi №14-sonli respublikasi ko'p tarmoqli, ilmiy konferensiya. - Toshkent, 2013 y. -B. 123-125.
5. Saparov K.A., Haytbaeva S.R. Modern approaches and innovative technologies in biology EDUCATION // *International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research*. New York, USA, 2024. – pp. 9-15.
6. Гречухиной Т.И., Меренкова А.В. "Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки". Екатеринбург 2016.
7. Жук А.И., Кошель Н.Н. Активные методы обучения в системе повышения квалификации педагогов: учеб.-метод. пособие. 2-е изд. Минск : Аверсэв, 2004. 336 с.
8. Нишоналиев У.Н. Янги педагогик ва ахборот технологиялари: муаммолар, ечимлар // *Педагогик таълим*. – Тошкент, 2001. – № 3.
9. Буга П., Карпов Б. Технология обучения в высшей школе // *Вестник высшей школы*. – 1991. – № 11. – С. 19.

SINF RAHBARI O'QUVCHILARNING BIRINCHI TARBIYACHISI VA MURABBIYSI

Ismoilova D. M.

ChDPU katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: axloq, tarbiya, o'quv, individual-psixik, sinf rahbari, g'oya, o'quvchi, insonparvarlik, tarbiyachi, nazokat, diqqat, maqsad, ong, kommunikativ, bilim, qobiliyat, temperament, pedagogik odob, ijtimoiy.

Ключевые слова: мораль, воспитание, обучение, индивидуально-психическое, классный руководитель, идея, ученик, гуманность, воспитатель, женственность, внимание, цель, сознание, коммуникативное, знания, способности, темперамент, педагогический этикет, социальное.

Key words: morality, education, education, individual mental, class teacher, idea, student, humanitarian, educator, tenderness, attention, goal, consciousness, communicative, knowledge, abilities, temperament, pedagogical etiquette, social.

РЕЗЮМЕ

Maqolada sinf rahbarining pedagogik odob talablariga rioya qilishi, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talablari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны требования к руководителю класса соблюдают требования педагогического этикета, уважают личност каждого ребенка как человека и не забывают о требованиях к нему, обладают организаторскими способностями, постоянно совершенствуются. свои навыки и творчески подходит к работе.

SUMMARY

The article describes the requirements for the class leader to comply with the requirements of pedagogical etiquette, respect the personality of each child as a person and not forget about the requirements for him, have organizational skills, and constantly improve your skills and a creative approach to work.

Hozirgi vaqtda maktab va uydagi o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga katta vazifalar qo'yimoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g'oyaviy, yuksak axloqiy fazilatlariga ega qilish, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o'ynaydi. Chunki, u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish har bir o'quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotgan o'quvchilarga o'z vaqtdan kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, maktab miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfning faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarini, sinf jurnali, o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablari o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiylikining darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni o'zi etrali emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlarini, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlarini bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobiliyati juda ko'p sifatlarini; chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon jaxti bilan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat sipolik va vazminlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo'shimcha ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.



Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z muomalasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligiga asosiy sabab, bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidir.

Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Sinf rahbari maktabdagi eng etuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatning o'lchovi, chegarsi yo'q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarini bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining o'rni aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishishda o'quv-didaktik masala sifatida maktabda ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bo'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyali o'zlashtirishga yordam beradi.

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sistemasi to'g'ri va bevosita sinfda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchilarning o'qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o'z sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda sinfda o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yuqori sinflarda yuqori o'zlashtirish uchun kurash susaymaydi, aksincha u yana ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5465-sonli farmoyishi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida // Xalq so'zi, 2019 yil 8-aprel
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/>
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O'qituvchi, 1992 -62 b.
4. Abdullayev M.A. Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat. Muloqot, 1998-№ 3-12 b.
5. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning —Tarbiyal fani talqini. —Toshkent, 2020. —36 b.
6. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish. - "Xalq ta'limi" jurnali, Toshkent, 2021.
7. Ismoilova D.M. O'quvchilarni tarbiya ishi pedagogi kasbiga yo'naltirish mexanizmlari. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendiriw. – Nukus, 2021. - № 4/1.- B. 43-46.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Кары Ниязий атындагы Озбекистан педагогикалык
илим-изертлеу институтыныц Ж. Орынбаев атындагы Каракалпакстан филиалы

«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

Некие — 2024

Басып шыгыуга жууапкер:
А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспага таярлаган:
А. Тилегенов

Компьютер де таярлаган:
П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мэнзил: Некие кутасы, Ерназар Алакез кешеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkj@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген магалалларга жууап куштарылмайды, журналда ээрияланган макушалардан алынган узин дилер «Мугаллим уэм узликсиз билимлендириу» журна- лынан алынды, деп керсетилиуи шэрт. Журналга 5-6 бет келеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге кабыл етиледу. Мақрлада келтирилген маэлыуматларга автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыуга рухсат етилди 23.12.2024. Форматы 70x100V₈

«Тайме» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэргли б.т. 31. Нашр. т. Нускасы Буйыртпа №